

## **8-Mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan promo-aksiyada ishtirok etish uchun OMMAVIY OFERTA TAKLIFI**

### **1. Umumiy qoidalar**

- 1.1. Ushbu ommaviy oferta taklifi (bundan keyin "Oferta - Taklif" deb yuritiladi) 8-Mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan promo-aksiyani (bundan keyin Aksiya deb yuritiladi) o'tkazish va unda ishtirok etish shartlarini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tashkilotchisi: "Kapitalbank" ATB.
- 1.3. Aksiya hamkori: "Milliy banklararo protsessing markazi (HUMO milliy to'lov tizimi).
- 1.4. Ushbu aksiya "Kapitalbank" ATB filiallari orqali "HUMO" bank kartalari emissiyasini rag'batlantirishga qaratilgan.
- 1.5. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi.
- 1.6. Aksiya lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish uchun to'lov talab qilinmaydi va "Kapitalbank" ATB bo'limlari orqali "HUMO" bank kartalari emissiyasini rag'batlantirishga qaratilgan.
- 1.7. Ushbu Oferta taklifi shartlarini qabul qilish (aksept) deb, Ishtirokchi tomonidan Aksiyada ishtirok etishga qaratilgan harakatlarni ushbu Oferta taklifining 3-bo'limida ko'zda tutilgan tartib va shartlar asosida amalga oshirilishi hisoblanadi. Bunday harakatlar amalga oshirgan paytdan boshlab Ishtirokchi hech qanday izohsiz yoki istisnolarsiz Oferta taklifi shartlari bilan tanishib chiqqan va to'liq rozi bo'lgan hisoblanadi. Oferta taklifining amaldagi tahriri Internet tarmog'ining [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz) saytida joylashtirilgan va kirish uchun mavjud.

### **2. Aksiyani o'tkazish muddatlari**

- 2.1. Aksiya 2026-yil 27-fevraldan 2026-yil 9-martgacha (shu jumladan, shu kun ham qo'shilgan) o'tkaziladi.
- 2.2. Aksiya o'tkazilishi doirasida quyidagilar belgilanadi:
  - 2.1.1. Kartalar emissiyasi davri: 2026-yil 27-fevraldan 2026-yil 6-martgacha, shu jumladan shu kun ham qo'shiladi;
  - 2.1.2. Tranzaksiyalarni hisobga olish davri: 2026-yil 7-martdan (00:00) 2026-yil 9-martgacha (23:59), shu jumladan shu kun ham qo'shiladi.
- 2.3. Natijalarni e'lon qilish 2026-yil 11-martgacha amalga oshiriladi.

### **3. Ishtirok etish shartlari**

- 3.1. Aksiyada faqat 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yashash huquqiga ega bo'lgan va uning hududida yashovchi ayol jinsiga mansub muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin.
- 3.2. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi quyidagilarni amalga oshirishi shart:
  - Kapitalbank ATBning istalgan bo'limida "HUMO" kartasini ochish;
  - Aksiya o'tkazilishini hisobga olish davrida tovarlar va/yoki xizmatlar uchun tovarlar yoki xizmatlar yetkazib beruvchilarning POS va/yoki E-POS terminallari orqali kamida 300 000 (uch yuz ming) so'm miqdorida to'lovni amalga oshirish.
- 3.3. Oferta taklifining 3.2-bandida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan va Ishtirokchi tomonidan hisobga olish davrida amalga oshirilgan har bir tranzaksiya Ishtirokchiga sovrinlar o'yinida ishtirok etish uchun bir qator imkoniyatlarni taqdim etadi, bu har bir to'liq 300 000 so'm uchun 1 ta imkoniyat hisobidan tranzaksiya summasi asosida hisoblanadi. Masalan, 300 000 dan 599 999 so'mgacha bo'lgan miqdorda to'lovni amalga oshirish orqali Ishtirokchi o'yinda ishtirok etish uchun 1 ta imkoniyatga ega bo'ladi, 600 000 dan 899 999 so'mgacha bo'lgan miqdorda - 2 ta imkoniyat va boshqalar. Imkoniyatlar sonini ko'paytirish maqsadida turli tranzaksiya summalari bir-biriga qo'shilmaydi. Imkoniyatlar soni har bir tranzaksiya bo'yicha alohida belgilanadi.

3.4. Oferta taklifining 3.2-bandida ko'rsatilgan summani tovarlar va/yoki xizmatlar uchun POS va/yoki E-POS terminallari vositasi orqali to'lovni o'tkazish Ishtirokchiga sovrin yutib olish imkoniyatini taqdim etadi. Tranzaksiyalar soni cheklanmagan. P2P o'tkazmalari (kartadan kartaga o'tkazmalar), shuningdek jismoniy shaxslar o'rtasidagi boshqa pul o'tkazmalari qabul qilinmaydi.

3.5. Tashkilotchi va Hamkorning xodimlari Aksiyada ishtirok etmaydi.

3.6. Oferta taklifini qabul qilish Ishtirokchining ushbu Ofertada ko'rsatilgan shartlar bilan to'liq tanish ekanligini va ularga so'zsiz rozi ekanligini, shuningdek, o'zining shaxsiy ma'lumotlaridan quyidagilar uchun foydalanilishi va qayta ishlanishiga rozilik berganligini anglatadi:

a) Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq reklama intervyularida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari (shu jumladan Internet, ijtimoiy tarmoqlar) ishtirok etish;

b) Aksiya Hamkori yoki Tashkilotchisi va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan Ishtirokchining foto va video syomkalarining amalga oshirilishi;

c) Ishtirokchi tomonidan yaratilgan fotosuratlar va videoyozuvlardan (bunday foydalanish uchun Ishtirokchidan qo'shimcha rozilik olish zaruratisiz va Ishtirokchiga bunday foydalanish uchun hech qanday haq to'lamasdan foydalanish), shu jumladan ommaviy axborot vositalarida (internetda) reklama maqsadlarida foydalanish, Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan fotosuratlar va videoyozuvlardan foydalanish huquqini Kompaniyaning affillangan shaxslari va/yoki uning nomidan ish yurituvchi pudratchilar/hamkorlarga faqat Kompaniyaning reklama va marketing tadbirlarini o'tkazish maqsadlarida berish huquqiga ega bo'lish.

3.7. Aksiya ishtirokchisi shaxsan o'z nomidan, ixtiyoriy va mustaqil ravishda harakat qiladi, o'z harakatlarining shartlari, oqibatlari va Aksiya tomonidan belgilangan tegishli qoidalarni aniq anglab yetadi.

#### **4. Sovrin jamg'armasi**

4.1. Sovrin jamg'armasi Hamkor mablag'lari hisobidan shakllantiriladi va soliqlarni hisobga olgan holda 300 000 000 (uch yuz million) so'mni tashkil etadi.

4.2. Aksiya natijalariga ko'ra, ushbu Oferta taklifida ko'zda tutilgan Aksiyaning barcha shartlarini tegishli ravishda bajargan 33 (o'ttiz uch) nafar g'olib aniqlanadi va ular o'rtasida Aksiyaning sovrin jamg'armasi taqsimlanadi.

4.3. Har bir g'olib ayol ishtirokchiga Kapitalbank ATB tomonidan chiqarilgan "HUMO" bank kartasiga naqd pulsiz yo'l bilan o'tkazilgan 8 000 000 (sakkiz million) so'm miqdorida pul mukofoti hisoblanadi.

4.4. Sovrin summasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq 12% miqdorida soliqqa tortiladi. Soliq hisobga olingan holda umumiy sovrin summasi 9 090 909,09 (to'qqiz million to'qson ming to'qqiz yuz to'qqiz) so'm 09 tiyinni tashkil etadi, shundan:

- 8 000 000 (sakkiz million) so'm g'olibning HUMO kartasiga o'tkaziladi;
- 1 090 909,09 (bir million to'qson ming to'qqiz yuz to'qqiz) so'm 09 tiyin soliq sifatida byudjetga o'tkaziladi.

4.5. Aksiyaning umumiy sovrin jamg'armasi Tashkilotchi va Hamkor mablag'ari hisobidan shakllantiriladi. Aksiya tashkilotchisi soliq agenti sifatida xizmat qiladi.

#### **5. G'oliblarni aniqlash va sovrinlarni topshirish tartibi**

5.1. G'oliblar Aksiya natijalari bo'yicha tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda tasodifiy ravishda tanlash orqali aniqlanadi. Aksiyaning yakuniy natijalariga ko'ra 33 ta g'olib ayol va 5 ta zaxira g'olib aniqlanadi.

5.2. Sovrinlar o'yini 2026-yil 11-mart kuni to'g'ridan-to'g'ri e'firda o'tkaziladi, avvaldan e'lon qilingan vaqt "Kapitalbank" ATB rasmiy axborot resurslarida (shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda) Hamkor va Tashkilotchining mas'ul shaxslari ishtirokida e'lon qilinadi. O'yin natijalariga ko'ra Tashkilotchi g'oliblarga natijalar to'g'risida xabarnoma yuboradi.

5.3. Tashkilotchi va Hamkor natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Tashkilotchi va Hamkorning rasmiy veb-saytlarida g'oliblar ro'yxatini e'lon qiladi. Pul

mablag'lari hisobga o'tkazilgan paytdan boshlab Tashkilotchining sovrinni topshirish majburiyati bajarilgan, sovrin esa Ishtirokchi tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

Agar g'oliblardan biri biron bir sababga ko'ra sovrinni qabul qilishdan bosh tortsa yoki Tashkilotchidan xabarnoma olganidan keyin 5 ish kuni ichida bog'lanmasa, sovrin navbat tartibiga muvofiq zaxiradagi g'olibga topshiriladi.

5.4. G'olib Aksiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 1 kalendar oydan kechiktirmay sovrinni olish uchun murojaat qilishi mumkin.

## **6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

### **6.1. Ishtirokchi quyidagilarni amalga oshirish majburiyatini oladi:**

6.1.1. Ushbu Oferta shartlariga rioya qilish;

6.1.2. O'zi haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etish.

### **6.2. Tashkilotchi va Hamkor quyidagilarni amalga oshirish majburiyatini oladi:**

6.2.1. Aksiyaning Oferta taklifiga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;

6.2.2. O'yin o'tkazilish tartibi shaffofligi va sovrinlarning o'z vaqtida topshirilishini ta'minlash.

### **6.3. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:**

6.3.1. Tashkilotchi va Hamkorning rasmiy veb-saytlari orqali Aksiya ishtirokchilarini xabardor qilgan holda Aksiya shartlarini o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish;

6.3.2. Aksiya shartlarining buzilishi aniqlangan hollarda, sovrinni hech qanday kompensatsiyalarsiz berishni rad etish.

### **6.3. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:**

6.3.1. Tashkilotchi va Aksiya hamkoriga yozma ravishda xabar berish orqali istalgan bosqichda Aksiyada ishtirok etishdan bosh tortish.

## **7. Aksiyani bekor qilish yoki o'zgartirish**

7.1. Tashkilotchi obyektiv sabablar (texnik nosozliklar, fors-major holatlari va boshqalar) mavjud bo'lganda, tegishli ma'lumotlarni Tashkilotchi va/yoki Hamkorning rasmiy resurslariga joylashtirish orqali Aksiyani muddatidan oldin bekor qilish yoki ushbu Oferta taklifi shartlarini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi

7.2. O'zgartirishlar, agar boshqa narsa ko'rsatilmagan bo'lsa, e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

## **8. Tomonlarning javobgarligi**

8.1. Tashkilotchi telekommunikatsiya tarmoqlari, uzatish tizimlari va uning nazorati ostida bo'lmagan texnik vositalarning ishlashidagi har qanday uzilishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

8.2. Ishtirokchi taqdim etilgan ma'lumotlarning aniqligi va Oferta taklifida belgilangan ishtirok etish shartlariga rioya qilinishi uchun javobgar bo'ladi.

8.3. Tashkilotchi ham, Hamkor ham quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- Ishtirokchilarning Aksiya qoidalari bilan tanishtirilmaganligi yoki Aksiya natijalari bilan tanishtirilmaganligi uchun;

- Aksiya tashkilotchisi/Hamkorning aybi bo'lmagan holda mobil aloqa operatorlari, internet-provayderlari tomonidan yuzaga kelgan har qanday texnik nosozliklar, muammolar yoki profilaktika ishlari uchun;

- Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi va/yoki Sovrin olishi bilan bog'liq bo'lgan har qanday xarajatlari va/yoki zararlari uchun.

8.4. Aksiyaning barcha ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq holda o'zlari tomonidan qilingan barcha xarajatlarni (shu jumladan, cheklovsiz, Internetdan foydalanish, Aksiya haqida har qanday ma'lumot olish, aksiya mahsulotini sotib olish va boshqalar bilan bog'liq xarajatlarni) mustaqil ravishda to'laydilar.

8.5. Tashkilotchi ham, Hamkor ham mobil telefon raqami yoki kartaga egalik bilan bog'liq nizolar yuzaga kelgan hollarda bahslarga aralashmaydi. Bunday nizolarning barchasi to'liq tomonlar o'rtasida mustaqil ravishda va o'z hisobidan hal qilinadi.

## **9. Boshqa shartlar**

10.1. Oferta taklifi bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

10.2. Oferta taklifi "Kapitalbank" ATB rasmiy resurslarida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Aksiya muddati tugagunga qadar amal qiladi.